

PAPER

KOMMUNIKATIV NIYAT VA BAHO SALBIYLASHUVI JARAYONLARI

Umarova Zumradxon Avazxon qizi¹, *

¹Qo'qon Davlat universiteti tayanch doktoranti

* umarova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada funksional lingvistika va pragmal lingvistika doirasida kommunikativ niyat hamda baho salbiylashuvi jarayonlari tahlil qilinadi. Tilning kommunikativ funksiyasi, uning nutqiy aktlarda ro'yobga chiqishi va so'zlovchi niyatidan kelib chiqib, til birliklarining bahosi qanday o'zgarishi ilmiy asosda yoritiladi. R. Jakobsonning til funksiyalari haqidagi nazariyasi, J. Ostin va J. Syorlning nutqiy aktlar nazariyasi, shuningdek, rus va o'zbek tilshunoslarining tadqiqotlari asosida masala keng ochib berilgan. Ingliz, rus va o'zbek tillari misolida ijobiy baholi birliklarning ironik qo'llanishi natijasida baho salbiylashuvi yuzaga chiqishi ko'rsatib beriladi. Natijalar kommunikativ niyat baho jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

Key words: Kommunikativ niyat, baho salbiylashuvi, funksional lingvistika, pragmal lingvistika, nutqiy akt, ironik qo'llanish, intonatsiya, kontekst, ijobiy va salbiy baho, til funksiyalari.

Ma'lumki, funksional lingvistika – bu tilshunoslikning bir yo'nalishi bo'lib, tilni uning kommunikativ vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganadi. Ya'ni, til qanday qilib muloqot, fikr ifodasi, hissiyotlarni yetkazish va tinglovchiga ta'sir qilish vositasi sifatida xizmat qilishi ochib beriladi. R. Jakobson bu haqda to'xtalib, “Til ikki kishi o'rtasidagi fikrni ifodalovchi vosita emas, balki ta'sir ko'rsatish, muloqot qilish va aloqa o'rnatish qurolidir”, degan edi. Olim til vazifalari 1) emotiv funksiya (so'zlovchining hissiyot va kayfiyatini ifodalash); 2) konativ funksiya (tinglovchiga ta'sir qilish (masalan, buyruq, iltimos); 3) referensial (axborot) funksiya (tashqi dunyo haqidagi ma'lumotni uzatish); 4) fatik funksiya (muloqotni o'rnatish va uni davom ettirish (masalan, “Alo!”)); 5) metatil funksiyasi (tilning o'zini tushuntirish (grammatika, izoh); 6) poetik funksiya (ifoda shakliga e'tibor qaratish (she'riyat, reklama) [1].

Funksional lingvistika til bajaradigan vazifalarni qayd qilar ekan, tilning fikr almashuv vositasi vazifasini bajarishini, kommunikatsiya jarayonini amalga oshirishini birlamchi vazifalar sifatida qayd qilindi. Jumladan, A.A. Leontyev, G.V. Kolshanskiy, I.A. Sternin o'z asarlarida bu vazifani tushuntirgan: “Nutq inson jamiyatida faqat insonning jamoadagi nutqiy xatti-harakatining o'z niyatlari, istaklarini ifodalashga faol

yo'naltirilgan holda shakllanishi mumkin edi” [2]. Ayni iqtibos til avvalambor kishilararo aloqa o'rnatish va axborot uzatish uchun paydo bo'lganligini anglatadi. G.V. Kolshanskiy ham kommunikativ funksiyani tilning markaziy funksiyasi sifatida ko'rsatib, tilning odamlararo o'zaro ta'sirni ta'minlovchi vosita sifatida o'rganadi [3]. Rus kommunikativ lingvistikasi asoschisi bo'lgan I.A. Sternin kommunikativ funksiya tilning asosiy funksiyasi sifatida jamiyat a'zolarining muloqot maqsadlarini amalga oshirishini tahlil qiladi [4].

I.A. Sterninning yuqoridagi “tilning kommunikativ funksiyasining jamiyat a'zolarining muloqot maqsadlarini amalga oshirishi” bo'yicha fikrlari kommunikativ niyatning muloqot jarayonida muhimligini hamda kommunikativ funksiyaning yuzaga chiqishining sababchisi ekanligini ko'rsatadi. Zero, kommunikativ niyat bo'lmasa, katta ehtimol bilan tilning kommunikativ funksiyasi reallashmaydi. J. Ostin, J. Syorl, K.E. Bulijin, X.K. Shererlarning pragmal lingvistikadagi asosiy tushunchalardan biri hisoblangan kommunikativ niyat bo'yicha qarashlari kommunikatsiya va nutqiy aktlar nazariyasida muhim o'rin tutadi.

J.R. Ostin o'zining “How to Do Things with Words” [5] asarida, J.R. Syorl o'zining “Speech Acts: An Essay in the Philosophy of

Language” [6] kitobida kommunikativ niyat (communicative purpose, communicative intention) tushunchasini nutqiy aktlar nazariyasi doirasida rivojlantirgan. Ular kommunikativ niyatning performativ hamda illokutiv aktlar doirasida izohlaydi. “J.R. Ostin, R.R. S Yorl va Z.Vendlerlarning nutqiy akt nazariyasi ta’limoti ta’sirida lingvistik pragmatikaning shakllanishining ma’lum asoslari bor. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko’ra so’zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko’rinishlari sifatida nutqda shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo’yadi” [7].

Rus lingvistlari ham mazkur lingvistik tushunchani yoritgan. Masalan, V.V. Vinogradov “Русский язык” asarida “Tilning kommunikativ maqsadi o’zida nutq vositalari va tuzilishini tanlash bilan belgilanadigan so’zlovchining niyatini namoyon etadi” deb fikr bildiradi [8]. N.D. Artemova “Теория коммуникации” monografiyasida: “Kommunikativ maqsad – bu gapiruvchining niyati bo’lib, so’zlovchi u nutq orqali qanday natijalarga erishmoqchi ekanligini belgilaydi, bu ma’lumotni berish, harakatga undash yoki his-tuyg’ularni ifoda etish bo’lishi mumkin” deydi [9]. Leksik semantika nazariyotchisi hisoblangan Y.D. Apresyan “Лингвистика текста” монографиясида: “Kommunikativ maqsad nutqning tuzilishida asosiy omil hisoblanadi, chunki u kommunikatsiya vaziyatida aniq nutq maqsadlariga erishish uchun vositalar tanlovini belgilaydi” deb ta’kidlaydi [10]. Stilistika bo’yicha ko’plab asarlar muallifi I.R. Galperin “Теория текста” asarida: “Kommunikativ maqsad gapiruvchining qabul qiluvchiga ta’sir ko’rsatishga qaratilgan bo’lib, u aloqa vaziyati kontekstiga ko’ra aniqlanadi” deb aytadi [11].

Yuqoridan bildirilgan fikrlardan ma’lum bo’lmoqdaki, kommunikativ niyat nutqiy aktlarning zaruriy qismi, u adresant va adresat muloqotini ta’minlaydi. Shuningdek, nutqiy akt shakli, til vositalari ham kommunikativ niyat asosida tanlanar ekan. Kommunikativ niyatning ayni xususiyati nutqiy aktda qo’llangan til birliklarining bahosiga ham ta’sir qiladi. Adresant nutq aktida kommunikativ niyatidan kelib chiqib, neytral, salbiy yoki ijobiy baholi so’zlarning baholarini boshqa bahoda namoyon qilishi mumkin. Lisoniy birliklardagi bahoning o’zgarishi nutq aktining mazmuniga ham ta’sir qiladi. Ana shu ta’sir etish jihati lisoniy birliklardagi uzual neytral, salbiy yoki ijobiy bahoning tabiatini qarama-qarshi tomongan o’zgartiradi. Baho o’zgarishi bilan bog’liq bu jihatlarning ilmiy asoslanishi o’zbek tilshunosligida til nazariyasi sohasini yangi xulosalar bilan boyitishi shubhasizdir. Tilshunos Y. Odilov “O’zbek tilida leksik va frazeologik enantiosemya” monografiyasida ushbu masalaga nutqiy enantiosemya bo’yicha fikr yuritgan o’rinlarda to’xtalgan edi. Olimning qat’iy ta’kidiga ko’ra: “So’zning o’zaro zid ma’nolar kasb etishi nutq egasi – so’zlovchi shaxsi bilan ham jips bog’liq. Mazkur bog’liqlik, ya’ni muvofiq nutqiy vaziyatda so’zning qarama-qarshi ma’nolarni namoyon etishi aynan nutq egasining kommunikativ-situativ maqsadi bilan yuzaga chiqadi. Shu kommunikativ-situativ maqsad tufayli so’zning odatdagi ma’nosi qarama-qarshi tomonga o’zgaradi, ana shu maqsad kontekstning mazmuni qurilishini ham belgilaydi. So’zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi, tabiiyki, shaxsning muayyan vaqtidagi psixik holati bilan ham bog’liq” [12]. Ushbu xulosa asosida aytilish mumkinki, kommunikativ niyat asosida baho salbiylashuvi dunyoning barcha tillari uchun xos xususiyatdir. Keyingi fasllarda bu masalaga ingliz, rus, o’zbek tillari misolida asoslanadi.

Ma’lumki, pragmlingvistika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog’i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o’zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta’siri bilan namoyon bo’luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o’rganadi [13].

So’zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o’zi o’ylagan niyatini ma’lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilargan ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o’z aksini topgan ma’noni chiqarib oladi. Ch. Osgudning fikricha, so’zlovchi niyatining muayyan madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo’lishi jarayonlarini o’rganadi [14].

Psixolingvistikada ham kommunikativ niyat haqida fikr yuritiladi va bunday talqinlar pragmlingvistik jihatdan kommunikativ niyatning ma’zolaridan keskin farq qilmaydi, ammo aynan ham bo’lmaydi. Masalan, “aksariyat rus psixolingvistlari kommunikativ niyatni nutq faoliyatining birinchi bosqichining tarkibiy qismi sifatida belgilaydilar. Kommunikativ niyat so’zlovchining muloqot ishtirokchisi sifatidagi rolini belgilaydi va uning nutqining aniq maqsadini belgilaydi. Kommunikativ niyatning ifodasi tilning leksik va grammatik vositalari bilan bir qatorda, asosan, intonatsiyadir [15]. Pragmlingvistik jihatdan kommunikativ niyatga yondashilganda ham ohangning ishtiroki, o’rni haqida to’xtalish maqsadga muvofiqdir, chunki kommunikativ niyatga ko’ra so’z bahosining salbiylashuvi yuz berganda aynan intonatsiya bahosi o’zgargan so’zga ishora qilib turadi. Yanada aniqlashtiradigan bo’lsak, bahosi salbiylashib o’zgargan so’z nutq aktidagi boshqa so’zlardan baland intonatsiyasida talaffuz qilinishi bilan ajralib turadi. Xususan, inglizcha nutqiy aktlarda “champ” so’zi “sportning biror turi bo’yicha g’olib bo’lgan shaxs” (sports champion, esp. in boxing) ma’nosini anglatadi. Shuningdek, muvofiq nutq vaziyatida ushbu so’z “bekorch kishi, omadsiz odam” (a bum, an unsuccessful person) ma’nosini ifodalaydi. “Champ” so’zini keyingi ma’noda qo’llash aynan adresantning kommunikativ niyati bilan yuz bergan, adresantning kommunikativ niyati shunday bo’lmaganda “champ” so’zini ironik qo’llamagan bo’lar edi. Adresantning bunday ifodadan foydalanishiga ironik qo’llashning ta’sir effekti yuqori hisoblanishi sabablidir. Ingliz tilidagi “dabster” so’zini ham kommunikativ niyatning ishtiroki nuqtayi nazaridan ko’rib chiqishimiz mumkin. Ushbu leksema aslida “bilimdon, mutaxassis” uzual ma’nosiga ega. Nutq aktlarida ironik qo’llanmaganda har doim ana shu ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Agar adresant adresatga “uquvsiz ishchi, no’noq odam” ma’nosini ta’sir effekti yuqori bo’lgan tarzda yetkazib berishni maqsad qilsa, “dabster” leksemasini ironik ifodalashi mumkin.

Kommunikativ niyat pragmlingvistikadagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. U lisoniy birliklarni adresant ta’sirida voqelantiradi. Kommunikativ niyat nutq aktlarining barchasida u yoki bu darajada qatnashadi. “Matnning barcha toifalari, uning barcha o’ziga xos xususiyatlari bitta umumiy maqsad bilan birlashtirilgan – matn muallifining kommunikativ niyatini amalga oshirish yoki nutq faoliyati jarayonida ushbu niyatni dekodlash”dir [16]. Baho salbiylashish jarayoni kommunikativ niyat aniq bo’lgandan keyin boshlanadi. Kommunikativ niyatning qandayligi til birliklarini muayyan mazmun ifodasi uchun yo’naltiradi. Har qanday til birligi adresantning kommunikativ niyatiga bog’liq ravishda turli ma’no-mazmun ifodalari uchun xizmat qildiriladi. Tilning inson ta’siri ostida ekanligini mazkur fikr yana bir bor dalillaydi.

Pragmlingvistika pragmatik maqsadning eksplitsit (ochiq) va implitsit (yashirin) ifodalanishini farqlaydi. Sh. Safarov bu haqida quyidagilarni yozadi: “Pragmatik maqsad va mazmunning eksplitsit, ya’ni ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga ko’chadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli ko’rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada performativ formula

(qolip) atamasini olgan” [17]. Shu ma’noda baho salbiylashuvi jarayonida kommunikativ va pragmatik maqsadlar yuzaga chiqadi. Tadqiqotlarda kommunikativ niyatning muloqotning umumiy maqsadi, oddiylilik, vaziyatga yo’naltirilganlik, aniq yoki yashirin bo’lishi tushuntiriladi. Pragmatik maqsadning esa kommunikativ maqsadga erishish mexanizmi ekani, muloqot kontekstiga bog’liqligi, lisoniy birliklarni tanlashdan iborat bo’lishi aytiladi [18].

Agar aytib o’tilgan fikrlarga asoslanadigan bo’lsak, avval kommunikativ maqsad aniq bo’ladi, so’zlovchi biror kommunikativ maqsadni niyat qiladi, undan so’ng shu niyatga ko’ra pragmatik maqsadni shakllantiradi. Pragmalingvistik maqsad esa unan keyin yuzaga keladi. Baho salbiylashuvi jarayoni ham bundan mustasno emas. Har qanday tilda so’zlovchi nutqi mana shunday davom etadi, ammo baho salbiylashuvida til birliklarining kommunikativ maqsadga mos tanlanishi hamda qo’llanishi, pragmatik va pragmalingvistik maqsadlarning amalga oshishi o’ziga xos ifodalanadi. Leksemaning uzual bahosi tamomila qarama-qarshi tomonga o’zgarganligi sababli kommunikativ maqsad va uning kokmponentlarini aniq kuzatish mumkin bo’ladi. Quyidagi kontekst orqali fikrimizni isbotlaymiz:

“I just want to thank you for being such a goddam prince, that’s all”. I said it in this very sincere voice. “You are aces, Ackley, kid”. I said, “You know that?” (Salinger) – “Men faqat sizga rahmat aytmogchiman, juda zo’r yigitsiz, xolos”, dedim juda samimiy ohangda. “Sen zo’rsan, Ackley, bolam”, dedim. “Buni bilasanmi o’zi?”. Mazkur kontekstda so’zlovchi ijobiy baholi “aces” so’zini ironik ma’noda qo’llash orqali, Eklini tanqid qilmoqchi bo’lgan. So’zlovchining kommunikativ maqsadi bilan “aces” so’zi tanlangan, natijada baho salbiylashish jarayonida bu so’z teskari ma’noda qo’llangan.

So’zlovchining kommunikativ niyati istalgan lisoniy birlikning bahosini salbiylashtirisha oladi. So’zning qaysi turkumga mansob bo’lishining farqi yo’q. Kommunikativ niyati asosida o’zi istagan ma’no uchun mos so’zni qo’llayveradi. Buning uchun so’zlovchidan nutqiy malaka, yetarlicha sintaktik qurshovni hosil qila olish malakasi bo’lishi yetarlidir. Kommunikativ maqsadning so’zlovchi istagiga mos ravishda namoyon bo’lishi jarayonini badiiy asarlarda yozuvchilar ijodi misolida aniq ko’rish mumkin. Masalan: JIMMY: *Perhaps Helena will think of somebody for you – one of her posh girl-friends with lots of money and no brains. That’s what you want. (Osborne, “Look Back in Anger”) – Balki, Helena siz uchun kimnidir o’ylab topar – pulga to’la, lekin aqli unchalik ishlamaydigan ko’rkam dugonalaridan birini. Sen xohlagan narsa shu. Mazkur kontekstda faqat so’zlovchining kommunikativ maqsadiga ko’ra ijobiy baholi “posh” so’zining ma’nosi salbiylashgan. To’g’ri ushbu so’z, “ko’rkam” ma’nosini bildiradi, ammo kontekstning oxirida qo’llangan “no brains” so’zi “posh” so’zining bahosini salbiylashtirgan. “Bu holda “posh” so’zining kollokvial melliorativ sifatidagi derogativatsiyasi gapiravchining boy tabaqa va uning shon-shuhratiga nisbatan mensimaslik munosabati bilan bog’liq. Bu munosabat “with no-brains” (aqli yo’q) degan peyorativ birikma orqali namoyon bo’ladi va shu tarzda boy tabaqa vakillari tavsiflanadi” [19].*

Jimmyning quyidagi nutqida ham “posh” so’zi ijobiy bahoni ifodalab kelmagan: JIMMY: *So do you, but I’m not singing an aria about it. (Turns to the next page.) The dirty ones get more and more wet round the mouth, and the posh ones are more pompous than ever. (Lowering paper, and waving pipe at Helena) Does this bother you? (Osborne, “Look Back in Anger”) Biroq Jimmyning quyidagi nutqida “posh” so’zining bahosi salbiylashmagan: JIMMY: Yes, I see what you mean. (To Helena) Well, we don’t want to ask for trouble, do we? Perhaps it might appeal to the lady here – she’s written a long letter all about artificial insemination. It’s headed: Haven’t we tried God’s patience enough! (Throws the paper down.) Let’s see*

the other posh one. (Osborne, “Look Back in Anger”) – JIMMY: Ha, nima demoqchi ekanligingni tushundim. (Helenaga qarab.) Xo’p, biz baloni o’zimizga chaqirmoqchi emasmiz, to’g’rimi? Balki bu xonimga yoqib qolar — u sun’iy urug’lantirish haqida uzun maqola yozgan. Sarlavhasi: “Xudoning sabrini yetarlicha sinamadmi?” (Gazetani ulotqiradi.) Keling, endi boshqa nafis maqolani ko’raylik. Kommunikativ niyat so’zlovchining nutq tuzgunga qadar bo’lgan istagini bildiradi, nutq tuzilgandan so’ng kommunikativ niyat pragmatik maqsadda davom etadi. Kommunikativ maqsad deb atalishining sababi so’zlovchining nutq tuzishdan – tinglovchiga biror xabarni aytish, nimanidir buyurish yoki iltimos qilish, o’ziga noma’lum voqea-hodisa haqida ma’lumot olish istagini ifoda etish uchun bo’ladi. Ana shu istakning nutqiy jarayonga kirishi pragmatik maqsad hisoblanadi. Bu haqda batafsil yozgan Arutyunovanning quyidagi fikri baho salbiylashuvi uchun ham ahamiyatli: “Til faqat ma’lumot almashish uchun emas, balki tinglovchiga maqsadli ta’sir ko’rsatish uchun ishlatiladi” [20]. Olimaning ushbu fikri to’g’ri, biz ham unga qo’shilamiz. Mana, masalan, Uning xizmati bilan ikki yilga kesildim, degan gapda so’zlovchining axborot berish istagi ham, munosabat ifodalash istagi ham ifoda qilingan. So’zlovchi nutq tuzishdan avval ana shu ikki istakni amalga oshirishni maqsad qilgan bo’lib, kommunikativ niyatida o’zi bildirmoqchi bo’lgan voqeani ironik ifodalash ham bo’lgan. Ironik ifodalash uchun neytral baholi xizmat so’zini tanlagan, uning bu tanlovi pragmatik maqsad hisoblanadi. So’zlovchining kommunikativ niyati pragmatik maqsadini vujudga keltirgan.

N.D. Arutyunova tomonidan kommunikativ niyat, pragmatik maqsad masalalari nutqiy aktlar vositasida atroflicha fikr yuritadi. Olimaning fikriga ko’ra, illokutiv maqsad bu so’zlovchining niyatidir, illokutiv akt esa nutqning asosiy pragmatik komponentidir. Mazkur nutq akti orqali so’zlovchi o’zi iltimos qilish, buyruq berish, maslahat berish kabi maqsadlarini yuzaga chiqarmoqchi bo’ladi. Perlokutiv nutq aktidan so’zlovchi tinglovchiga ta’sir o’tkazmoqchi bo’ladi. Buning uchun so’zlovchi suhbatdoshini gapi bilan ishontirishi, xafa yoki xursand qilishi mumkin. Agar so’zlovchi perlokutiv ta’sirni uddalay olmasa, pragmatik maqsadi muvaffaqiyatli yuzaga chiqadi, buning uchun ta’sir etish shakli, vositasi so’zlovchining pragmatik maqsadiga muvofiq kelishi zarur. Ta’sir etish shakli va vositalari lokutiv nutq akti bilan bog’liq. Ya’ni so’zlovchi tanlagan til birliklari sintaktik va semantik tuzilishi jihatidan o’zaro muvofiq, bir-biriga mos tushishi lozim, chunki shunday moslik komponenti pragmatik maqsadning asosidir [21].

O’zbek tilidagi, ushbu “Gapimni bo’lmang, yigitcha” jumlasini nutq vaziyatiga qarab buyruq yoki iltimos mazmunini bildiradi. Unda so’zlovchi tanlagan til birliklari, fikr yoki munosabat ifodalash yo’sini buyruq uchun ham, iltimos uchun ham mos keladi. O’z navbatida, yigitcha so’zining kichik yoshli o’g’il bolaga ishlatilishi yoki voyaga yetgan shaxsga nisbatan qo’llanishi ham mumkin. Ikkinchi holatda qo’llanganda, albatta, yigitcha so’zining semantik strukturasiidagi neytral baho salbiy bahoga o’zgaradi. Ushbu baho salbiylashuvi jarayoni so’zlovchining kommunikativ niyatidan tashqarida yuz bermaydi, so’zlovchi kommunikativ niyati asosida pragmatik maqsadini neytral baholi yigitcha so’zini kinoyal qo’llaydi. Mazkur jumlada perlokutiv ta’sir va pragmatik maqsad muvaffaqiyatli chiqqan, ya’ni so’zlovchi luqma tashlab suhbatni bo’layotgan suhbatdoshini tartibga chaqirish, norozi munosabatini bildirish uchun so’z bahosini salbiylashtirib qo’llagan. Bunda so’zdagi uzual bahoning o’zgarganligini og’zaki nutqda intonatsiya, yigitcha so’zining birinchi bo’g’iniga tushayotgan urg’udan bilish mumkin, yozma nutqda kontekstning umumiy mazmunidan anglashilib turadi.

Y.S. Gritsenko baho salbiylashuvini so’zlashuv uslubi doirasida o’rganar ekan, baho salbiylashuvini yuzaga chiqaradigan vosita haqida quyidagilarni yozadi: “Uzusda melliorativ ma’noga ega

bo'lgan so'zlarni ironiyali qayta talqin qilish orqali ularning ma'nosi o'zgarishi tendensiyasi kichraytirish va erkalash ma'nosini beruvchi suffikslarga ega so'zlarda ham kuzatiladi. Kundalik so'zlashuvda bunday hissiy-baholovchi ma'nolarning qarama-qarshi holatlari tez-tez uchraydi. Masalan, quyidagi kontekstda pastki qatlamdan chiqqan, o'zi mustaqil ravishda hayotda o'z yo'lini topishga majbur bo'lgan yosh yigitning nutqida "daddy" degan kichiklashtiruvchi-erkalatuvchi so'z ochiqchasiga kamsitish tusini oladi: "He had a rich daddy to look after him and to buy him education" (Braine) – Unga g'amxo'rlik qiladigan, uning ta'limi uchun pul beradigan "dadajoni" bor [22].

Yuqoridagi misolda ham so'zlovchi kommunikativ niyati hal qiluvchi rol o'ynagan. U fikrini ta'sirchan ifodalash maqsadida ironiyadan foydalangan. Bunday kommunikativ maqsad pragmatik maqsadiga asos bo'lgan. Kichraytirish-erkalash qo'shimchasi kinoyali qollanib, pragmatik maqsadni yuzaga chiqargan va so'zning bahosini salbiylashtirgan, jumlaning so'zlashuv uslubiga oidligi ham kommunikativ niyatning yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jakobson, Roman. "Closing Statement: Linguistics and Poetics." *Style in Language*, edited by Thomas A. Sebeok, MIT Press, 1960, pp. 350–377.
2. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Изд-во «Просвещение», 1969. – 248 с.
3. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. – М.: Изд-во «Наука», 1984. – 183 с.
4. Стернин И.А., Попова З.Д. Общее языкознание. – М.: Изд-во «АСТ: Восток-Запад», 2007. – С. 20–30.
5. Austin J. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 166 p.
6. Searle J. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
7. Sobirova N.E. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik xususiyatlari / "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" mavzusidagi konferensiya materiallari, 2022. – 362 b.
8. Виноградов В.В. Русский язык. – М.: Изд-во «Наука», 1986. – 254 б.
9. Артемова Н.Д. Теория коммуникации. – М.: Изд-во «Высшая школа», 2010. – 318 б.
10. Апресян Ю.Д. Лингвистика текста. – М.: Изд-во «Наука», 2001. – 251 б.
11. Гальперин И.Р. Теория текста. – М.: Изд-во «Наука», 1981. – 283 б.
12. Одилов Ё. Ўзбек тилида лексик ва фразеологик энантиосемия. – Тошкент: "Tafakkur" nashriyoti, 2015. – 239 б.
13. Sobirova N.E. Pragmatika va nutqning lingvopragmatik xususiyatlari / "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" mavzusidagi konferensiya materiallari, 2022. – 361 b.
14. Babaxanova D. Psixolingvistika fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Namangan, 2024. – 273 b.
15. Сафаров Ш. Прагматическая лингвистика. Монография. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. – 179 б.
16. Гриценко Е.С. Эмоционально-оценочная энантиосемия в разговорной речи / Теория и практика лингвистического описания разговорной речи. Межвузовский сборник научных трудов. – Горький, 1989. – С. 15.
17. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Прогресс, 1999. – 199 с.